

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR
ORQALI EKOLOGIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna***

Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizi

e-mail karimbayevamaftuna04@gmail.com

Annatotsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish texnologiyasi, ekologiyaga oid jarayonlarining mazmun mohiyati ochib berilgan. Maktabgachja ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini syujetli-rolli o'yinlariga bo'lgan qiziqishlari, pedagogik jihatdan rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlarda mavjud bo'lgan "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazining vazifazi hamda ushbu markazni jihozlash bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Fikrlar maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturiga asoslangan holda xulosalangan.

Yangi O'zbekistonning porloq kelajagi, uning ertangi taraqqiyoti, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tizimini va oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish bilan bog'liq. Zamonaviy jamiyatda bilim va texnologiyalarning tez almashishi, hayotning ko'plab sohalarini raqamlashtirish, yangi ta'lim shakllarini joriy etish, jamiyatda shaxsning manfaatlariga yo'naltirilgan va iqtisodiy samardorlikni ta'minlovchi oliy ta'limning "ideal turini" talab qilmoqda.

Kalit so'zlar. Maktabgacha, syujetli-rolli, o'yinlar, ta'lim, tarbiya, jarayon, texnologiya, ekologiya, rivojlantirish, yosh guruhlari, bola, bilim, malaka, ko'nikma, amaliy faoliyat, pedagog, iqtidorli, fan.

Kirish. Bolaning o'sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha mano topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o'ynayotgan o'yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o'rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o'yini bolani har jihatdan rivojlantiradi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa vakillari o'z o'yinlarida ovchilik,

urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba'zi hollarda o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Bola o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti davrlari teatrlashtirilgan o'yin faoliyatining integratsiyalashgan o'yinlar, san'atning turlari hisobiga boyitiladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlay oladigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining erkin fikrlashlarini tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan biz pedagoglar hozirgi yangi davr talabi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlarimizni tashqi zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. maktabgacha yoshdagagi bolalarni syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish borasida bir nechta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko'rinishlari - bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir. aktabgacha yoshdagagi bolalar uchun syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir nechta olimlar va ularning ishlari mavjud. Quyida ba'zi mashhur olimlar va ularning ekologik ta'lim sohasidagi ishlariga to'xtalib o'tamiz, **Lev Vygotskiy** – Vygotskiy, o'zining "ijtimoiy o'rganish" nazariyasini orqali, bolalarning o'yin faoliyatini o'rganishda katta hissa qo'shgan. U bolalar o'yinlarida jamiyat va madaniyatning muhim qismlarini o'rganishini ta'kidlagan. Syujetli-rolli o'yinlar, uning nazariyasiga ko'ra, bolalarda tasavvur va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, shuningdek, ekologik tushunchalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. **Jean Piaget** – Piaget bolalarning rivojlanish bosqichlarini o'rganib, o'yinlarning bolalarning dunyoqarashini va tushunchalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning ishlarida o'yin va kognitiv rivojlanishning o'zaro aloqasi ko'rsatilgan. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalar o'zlarining ekologik bilimlarini va atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradilar. **Erik Erikson** – Eriksonning psixologik rivojlanish nazariyasida o'yin va ijtimoiy rollarning bolalarning kimligini aniqlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. U bolalarning o'yin jarayonida atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishda rol o'ynaydi, bu esa ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi. **Maria Montessori** – Montessori metodikasining asoschisi bo'lgan Maria Montessori bolalarda atrof-muhitga hurmat va

mas'uliyatni shakllantirishda ekologik ta'limning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning pedagogik yondashuvi bolalarning tabiat bilan bevosita aloqada bo'lishini va ekologik tushunchalarni amaliyotda o'rganishini ko'zda tutadi. **David Sobel** – David Sobel bolalar ta'limi va ekologik tarbiyani birlashtirgan muhim ishlarni amalga oshirgan olimlardan biridir. U ekologik ta'limni bolalar uchun yoshga mos ravishda tashkil etishni, ayniqsa syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirishni muhim deb hisoblaydi. Sobel bolalar bilan ishslashda ekologik his-tuyg'ularni rivojlantirishni va tabiiy resurslarga bo'lgan hurmatni o'rgatishni ta'kidlaydi. **Richard Louv** – Louv, "Last Child in the Woods" (O'rmondag'i so'nggi bola) kitobida bolalar va tabiat o'rtasidagi aloqa va ekologik tushunchalarni o'rganishning ahamiyatini ta'kidlagan. U o'yin va tabiiy muhitga bevosita aloqada bo'lishning bolalar uchun zarurligini va ekologik ongni shakllantirishda uning rolini ko'rsatgan.

Bu olimlarning ishlari ekologik ta'lim va syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning samarali usullari haqida ilmiy asoslangan yondashuvlarni taqdim etadi. Ularning ishlariga tayangan holda, pedagoglar va ilmiy xodimlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'limni samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqishadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada mavzubni yoritishda bir qancha olimlarning ilmiy izlamnishlaridan, tadqiqot natijalaridan, darsliklaridan foydalilanilgan. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar hayotidagi o'yinlarni yangi metodlardan foydalangan holda qo'llash yoritib berilgan. Bolalarni syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish ohib berishga harakat qilingan.

Muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tushunchalarni shakllantirishda syujetli-rolli o'yinlar juda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu turdag'i o'yinlar bolalarga ekoliya haqida amaliy tushunchalar berishga yordam beradi, ularni tabiatga mehr va hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni syujetli-rolli o'yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish — bu bolalar uchun juda samarali va qiziqarli usuldir. Bu yoshdagi bolalar hali o'rganayotgan dunyonni o'zlariga yangi va oddiy shakllarda taqdim etishni talab qiladi. Syujetli-rolli o'yinlar esa bolalarga ekologik muammolarni, tabiatni sevishni va uning muhofazasiga bo'lgan mas'uliyatni tushuntirishda ajoyib imkoniyat yaratadi. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda, o'z fikrlarini erkin ifodalashda va jamoaviy ishslashda katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bolalar tabiatdagi o'zaro bog'liqliklar, ekosistemalar, hayvonlar va o'simliklar o'rtasidagi munosabatlar haqida ko'proq bilib olishadi. Masalan, bolalar o'rmonni himoya qilish, chiqindilarni ajratish, suvni tejash yoki hayvonlarni asrab-avaylash kabi ijobiy ekologik xatti-harakatlarni o'rganadilar. Sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o'rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini

rivojlanib boradi. Musiqiy, so‘z, ko‘rish obrazlaridan foydalangan holda zarur bolgan ruhiy sifatlarini, ijrochilik ko‘nikmalarini va sezgilar rivojlanishi uchun sahna mashqlari o‘tkaziladi. Badiiy asarlar bo‘yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga ma’lum ifoda vositalari o‘rgatiladi. Har bir bola rol o‘ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg‘u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o‘zini tutishi qobiliyatilari shakllantirishi lozim. Teatrlashtirilgan o‘yinlarda obrazli o‘yinchoqlardan, loydan, pape-mashe, plastilindan mustaqil yasalgan o‘yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sahnalashtirilgan har qanday o‘yin asosida bolaning bilish jarayonida irodaviy - hissiy xususiyati badiiy asardagi go‘zallikni his qilishi ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirib borishga alohida e’tabor qaratish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga o‘qib ertak kitobcha syujetinini o‘z so‘zlarini bilan hikoya qilgan holda, sahna ssenariysini tuzadilar, unga mos qo‘g‘irchoqlarni tanlab, ishtirokchilar o‘rtasida muhokama qilib, rollarni bo‘lib olishadi. Syujetni rollarga kirib, ravon va ifodali qilib aytishi kerak. Syujetdagi qo‘g‘irchoqlar hatti-harakatini o‘zlashtirishi- har bir imo-ishora va mimikasini ko‘rsata bilishi kerak.

Natijalar. Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi va ularda ijobjiy ekologik xatti-harakatlarni rivojlantiradi. O‘yinlar yordamida bolalar tabiatga bo‘lgan sevgini mustahkamlash, tabiat resurslarini asrab-avaylash va ekologik ongi shakllantirish kabi maqsadlarga erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagи bolalarni syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirishning natijalari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Ekologik ongi rivojlantirish. Bolalar ekologik muammolar va tabiatning muhimligi haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladilar. Syujetli-rolli o‘yinlar orqali bolalar atrof-muhitning holatini tushunishga, tabiatni asrab-avaylashning zarurligini sezishga o‘rganadilar. Masalan, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish, suvni tejash, o‘simpliklarni parvarish qilish kabi ijobjiy ekologik xatti-harakatlarni o‘zlashtiradilar.

Jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish. Ekologik syujetli-rolli o‘yinlar bolalarda jamoaviy ish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar birgalikda tabiatni himoya qilish, o‘rmonni saqlash yoki hayvonlarni asrab-avaylash kabi vazifalarni bajarishadi. O‘yinlar davomida ular bir-biriga yordam berish, maslahatlashish va birgalikda harakat qilishni o‘rganadilar.

Empatiya va mas’uliyat hissini rivojlantirish. Bolalar ekologik o‘yinlar orqali tabiatga va uning resurslariga mehr va hurmat bilan qarashni o‘rganadilar. Hayvonlarni himoya qilish, o‘simpliklarni parvarish qilish va toza muhit yaratishga bo‘lgan ehtiyojni his qilishadi. Bularning barchasi bolalarda mas’uliyat hissini va empatiya tuyg‘usini shakllantiradi.

Kreativ fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Syujetli-rolli o'yinlar bolalar uchun ekologik muammolarni hal qilishni o'rghanish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Bolalar turli ekologik vaziyatlarni tasavvur qilib, ularga yechim topishga harakat qilishadi. Bu esa ularning kreativ fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tabiat va uning resurslarini qadrlash. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalar tabiatning nozik ekosistema ekanligini tushunadilar. O'yinlar davomida ular o'simliklar, hayvonlar, suv, havo kabi tabiat resurslarining muhimligini va ularni asrab-avaylash zarurligini anglab yetadilar. Bu, o'z navbatida, bolalar tabiatga nisbatan qadrlash va e'tibor bilan yondashishlarini ta'minlaydi.

O'zaro aloqalar va kommunikatsiya ko'nikmalarining oshishi. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarda o'zaro muloqot va kommunikatsiya ko'nikmalarini oshiradi. Ekologik mavzularda o'ynash jarayonida bolalar bir-birlari bilan fikr almashadilar, o'z nuqtai nazarlarini ifodalaydilar, guruhda ishlashni o'rghanadilar. Bu esa ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Tabiatni sevishga o'rgatish. Ekologik syujetli-rolli o'yinlar bolalarni tabiatni sevishga o'rgatadi. Bolalar o'rmonni, o'simliklarni, hayvonlarni, daryolarni va boshqalarni sevib, ularni himoya qilishni istaydilar. O'yinlar orqali bolalar tabiatga o'z hissalarini qo'shish, tabiatni saqlash va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga mas'uliyatli bo'lishni o'rghanadilar.

Qayta ishslash va chiqindilarni boshqarish ko'nikmalarini o'rghanish. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalar chiqindilarni to'g'ri ajratish, qayta ishslash va to'g'ri tashlashni o'rghanadilar. Bu o'yinlar orqali bolalar chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejash muhimligini anglashadi.

Ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni rivojlantirish. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarda ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlar davomida bolalar atrof-muhitni asrab-avaylash, jamoaga foyda keltirish va tabiatni saqlashning ahamiyatini o'rghanadilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Maktabgacha yoshdagи bolalar uchun ekologik tushunchalarni shakllantirishda syujetli-rolli o'yinlarning o'rni katta. Bu o'yinlar bolalarga tabiiy muhit, hayvonlar bilan bog'liq tushunchalarni qiziqarli va o'rghanishga oson shaklda taqdim etadi. Syujetli-rolli o'yinlar, bolalarga ekologik muammolarni tushunishga yordam beradigan amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi, masalan, ifloslangan svjni tozalash, o'simliklarni parvarishlash yoki hayvonlarni saqlash kabi faoliyatlar orqali. Bunday o'yinlar bolalarda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi, ularni tabiatni asrab-avaylashga o'rgatadi, ekologik xabardorlikni oshiradi. Shu bilan birga, bu o'yinlar bolalarda ijodiy fikrlash, jamoada ishslash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Syujet - o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.A. Rasulkho'jaeva, Technology of formation of moral qualities of preschool children by introducing them to the animal world Methodological guide Tashkent.: "Ilm-Ziyo Zakovat" 2020
2. M.A. Rasulhojayeva. Using folklore to introduce large groups of children to the animal world. Methodology and theory of preschool education Scientific-methodical, ethical-educational, popular journal Tashkent: 2021 No. 9 (33)
3. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1).
4. Расулходжаева, М. А. (2022). Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.
5. Rasulxo'jayeva M.A., Sh.O.Madaminova (2024). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalar psixologik jarayonlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Vol. 17 no. 1 (2024): Лучшие интеллектуальные исследования | часть-17 | том-1
6. Rasulxo'jayeva M. A., Salimova A. A. (2024) Actual Problems and their Solutions in the Organization of Pedagogical Processes of Preschool Teachers. Vol. 55 (2024): Miasto Przyszłości
7. Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, & Ko'jageldiyeva Aziza Muxsum qizi. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH JARAYONINI TASHKIL ETISH TRAYEKTORIYASI . PEDAGOOGS Jurnali, 27(1), 39–43. Retrieved from